

**O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIIY TA’LIM, FAN VA
INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI TOSHKENT DAVLAT IQTISODIYOT
UNIVERSITETI HUZURIDAGI “O‘ZBEKISTON IQTISODIYOTINI
RIVOJLANTIRISHNING ILMIY ASOSLARI VA MUAMMOLARI”
ILMIY TADQIQOT MARKAZI**

Qo‘lyozma huquqida

UDK 338. 717 (575.1)

UMAROVA MALIKA BAXTIYAROVNA

**O‘ZBEKISTONDA BANKLARNI TRANSFORMATSIYALASH
USLUBIYOTINI TAKOMILLASHTIRISH**

08.00.07 – Moliya, pul muomalasi va kredit

**Iqtisodiyot fanlari doktori (DSc)
ilmiy darajasini olish uchun yozilgan
DISSERTATSIYASI**

**Ilmiy maslahatchi:
Kalonov Muxiddin Baxritdinovich, i.f.d., professor**

Toshkent – 2025

MUNDARIJA

KIRISH.....	4
I-BOB. TIJORAT BANKLARINI TRANSFORMATSIYALASHNING NAZARIY-HUQUQIY ASOSLARI.....	16
1.1. Tijorat banklarini transformatsiyalash jarayoni bo'yicha nazariy-ilmiy yondashuvlar.....	16
1.2. Tijorat banklarini transformatsiyalashda zamonaviy texnologiyalarni joriy etish asoslari.....	36
1.3. Tijorat banklarini transformatsiyalashning me'yoriy-huquqiy asoslari.....	56
1-bob bo'yicha xulosalar.....	67
II-BOB.O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI TIJORAT BANKLARINI TRANSFORMATSIYALASHNING JORIY HOLATINING TAHLILI VA UNI RIVOJLANTIRISH TENDENSIYALARI.....	63
2.1. O'zbekiston Respublikasida banklarni transformatsiyalash jarayonining joriy holatining tahlili	71
2.2. O'zbekistonda banklarni transformatsiyalash jarayonida biometrik identifikatsiyalash tizimidan foydalanish imkoniyatlari tahlili.....	87
2.3. Tijorat banklarida Touch ID tizimini valyuta ayriboshlashga joriy etishning tahlili.....	96
2-bob bo'yicha xulosalar.....	110
III-BOB.TIJORAT BANKLARINI TRANSFORMATSIYALASHNING ILG'OR XORIJ TAJRIBASI.....	112
3.1. Rivojlangan va rivojlanayotgan mamlakatlarda banklarni transformatsiyalash jarayoniga raqamli texnologiyalarni qo'llash tajribasi...	103
3.2. Tijorat banklariga ilg'or innovatsion texnologiyalarni qo'llash imkoniyatlari.....	131
3.3. O'zbekistonda banklarni transformatsiyalashda zamonaviy bank xizmatlaridan foydalanish uslubiyoti	143
3-bob bo'yicha xulosalar.....	161

IV-BOB. TIJORAT BANKLARINI TRANSFORMATSIYALASH	
USLUBIYOTINI TAKOMILLASHTIRISH.....	155
4.1. Tijorat banklarini transformatsiyalashda innovatsion texnologiyalarni qo‘llash uslubiyatini takomillashtirish.....	164
4.2. Tijorat banklarini transformatsiyalashda moliyaviy samaradorlikni oshirishga ta’sir etuvchi o‘zgaruvchilarning ekonometrik tahlili va prognoz ko‘rsatkichlarini baholash.....	176
4.3. O‘zbekistonda banklarni transformatsiyalash uslubiyotini takomillashtirish.....	197
4-bob bo‘yicha xulosalar.....	217
XULOSA.....	221
FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI.....	224

Kirish

Dissertatsiya mavzusining dolzarbligi va zarurati. Jahonda transformatsiya jarayoni banklarning raqobatbardoshligini oshirish, ularning faoliyatini globallashtirish va mijozlarga yuqori sifatli xizmatlar taklif qilishda muhim ahamiyatga ega. Moliya bozorining globallasuvi, raqamli texnologiyalarning rivojlanishi va mijozlar talablarining o'zgarishi banklar uchun yangi imkoniyatlar yaratmoqda. Juniper Research ma'lumotlariga ko'ra, "2026-yilga kelib, dunyo aholisining 53 % raqamli bank xizmatlaridan foydalanish imkoniyatiga ega bo'ladi; bu 2021-yilda 2,5 milliard foydalanuvchidan boshlangan holda, 4,2 milliarddan ortiq raqamli bank foydalanuvchilariga yetadi. Unda pandemiya davrida banklarning samarali ishlashi uchun raqamli transformatsiyalash jarayonlarining rivojlanishi raqamli bankning samaradorligini asoslaydi va foydalanuvchilar o'sishini rag'batlantiradi"¹. Shuningdek, banklarni transformatsiyalashda bankning tashkiliy tuzilmasini qayta shakllantirish, xizmatlari ko'lamini kengaytirish maqsadida yangi xizmat turlarini joriy etish hamda aholi uchun qulay xizmat turlarini taqdim etish, banklarni transformatsiyalash uslubiyotini takomillashtirish dolzarb masalalardan hisoblanadi.

Bugungi kunda jahon amaliyotida bank infratuzilmasini raqamli va innovatsion texnologiyalar yordamida rivojlantirish, bank xizmatlari ommabopligini oshirish borasida kompleks ilmiy tadqiqotlar olib borilmoqda. Tadqiqotlar banklarni transformatsiyalash jarayonida yangi xizmat turlarini joriy etishning nazariy-huquqiy asoslarini takomillashtirish, bank tizimini isloh qilish doirasida davlat ishtirokidagi banklarni transformatsiya qilish, banklarning zamonaviy korporativ boshqaruv tizimini joriy etishga qaratilgan ishlar bilan bog'liq qonunchilik hujjatlarini takomillashtirish, banklarning kapitallashuv darajasi va resurs bazasini oshirish, banklar uchun belgilangan prudensial

¹ Juniper Research "Digital Banking: Banking-as-a-Service, Market Transformation & Forecasts 2021–2026".